


## 2022- yilning yanvar-iyunida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 22 234,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>19 178,4</b>	<b>22 234,2</b>	<b>104,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 281,1	21 161,6	104,4
mahsulotlarga sof soliqlar	897,3	1 072,6	109,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>18 281,1</b>	<b>21 161,6</b>	<b>104,4</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>6 623,6</b>	<b>7 597,1</b>	<b>103,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>4 782,7</b>	<b>5 466,3</b>	<b>105,9</b>
sanoat	3 588,9	3 975,9	105,6
qurilish	1 193,8	1 490,4	106,8
<b>xizmatlar</b>	<b>6 874,8</b>	<b>8 098,2</b>	<b>104,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 253,2	1 478,7	105,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	984,8	1 167,3	112,9
boshqa xizmat tarmoqlari	4 636,8	5 452,2	102,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 494,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,9 % ni, sanoat tarmog'i 18,8 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 38,3 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,3	95,2
mahsulotlarga sof soliqlar	4,7	4,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>36,2</b>	<b>35,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,1</b>	<b>25,8</b>
sanoat	19,6	18,8
qurilish	6,5	7,0
<b>xizmatlar</b>	<b>37,7</b>	<b>38,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,9	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	25,4	25,8

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,9 %), sanoatda – 105,6 % (18,8 %), qurilishda – 106,8 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 104,2 % ni (38,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,2 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,9 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,0 % (25,8 %) dan iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 4,8 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,5 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) ga ko'paydi.

**2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 116,9 % va xizmatlar sohasida – 113,1 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi** (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 65,5 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 65,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

65,6 %

2022- yil

65,5 %